

Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 1 499,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



| | Hajm, mlrd so'm | O'sish sur'ati, % |
|----------------------------|-----------------|-------------------|
| Sirdaryo viloyati * | 1 499,6 | 111,3 |
| Guliston sh. | 302,6 | 101,8 |
| Shirin sh. | 47,1 | 103,4 |
| Yangiyer sh. | 68,7 | 113,8 |
| Boyovut | 34,7 | 103,0 |
| Guliston | 48,5 | 102,3 |
| Mirzaobod | 344,0 | 133,9 |
| Oqoltin | 24,3 | 107,4 |
| Sardoba | 59,3 | 117,0 |
| Sayxunobod | 49,4 | 101,7 |
| Sirdaryo | 99,9 | 103,3 |
| Xovos | 41,5 | 102,5 |

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.


Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarinining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 69,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 122,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 24,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 82,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,7 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 176,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

| | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
|---|------------------------------------|-----------------------------------|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm | 97,7 | 121,4 | 7,3 |
| o'sish sur'ati, % | 132,6 | 107,9 | 174,9 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm | 616,4 | 248,5 | 79,0 |
| o'sish sur'ati, % | 134,6 | 74,2 | 176,7 |
| Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm | 329,3 | | |
| o'sish sur'ati, % | 100,8 | | |

Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 226,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 119,7 % ni va ularning umumiy hajmidagi ulushi 1,0 % ga ko'payib, 15,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,9 % to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ni tashkil etgan holda 943,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlaringin ulushi 22,0 % ni yoki 329,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 100,8 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Hajm, mlrd so'm | | | O'sish sur'ati, % da | | |
|----------------------------|-----------------|----------------------|-----------------|----------------------|----------------------|-----------------|
| | Yirik | Kichik va mikrofirma | Norasmiy sektor | Yirik | Kichik va mikrofirma | Norasmiy sektor |
| Sirdaryo viloyati * | 226,3 | 943,9 | 329,4 | 119,7 | 113,4 | 100,8 |
| Guliston sh. | 15,2 | 233,4 | 54,0 | 2,5 m. | 100,4 | 91,6 |
| Shirin sh. | 31,2 | 14,1 | 1,8 | 118,9 | 88,6 | 51,1 |
| Yangiyer sh. | - | 62,1 | 6,6 | - | 121,6 | 70,1 |
| Boyovut | 2,4 | 20,1 | 12,2 | 105,9 | 105,6 | 98,2 |
| Guliston | 24,1 | 18,5 | 5,9 | 8,4 m. | 50,2 | 76,4 |
| Mirzaobod | 49,6 | 288,9 | 5,5 | 77,5 | 157,4 | 58,0 |
| Oqoltin | 2,3 | 16,7 | 5,3 | 103,1 | 117,5 | 85,3 |
| Sardoba | 32,3 | 21,4 | 5,6 | 96,3 | 2,2 m. | 75,4 |
| Sayxunobod | 1,8 | 39,5 | 8,1 | 91,3 | 103,6 | 95,6 |
| Sirdaryo | 13,6 | 51,7 | 34,6 | 91,9 | 77,4 | 2,4 m. |
| Xovos | 6,2 | 27,6 | 7,7 | 145,3 | 98,0 | 95,6 |

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajjni hisobga olgan holda.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 8,4 m.), Guliston shahri (2,5 m.) va Xovos tumanida (145,3 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Sardoba tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,2 m.), Mirzaobod tumani (157,4 %) va Yangiyer shahrida (121,6 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitarni-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlaringining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalar;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Xazratqulov
67 236-70-00 (2020)

Manzil:

